XALQ DEPUTATLARI MIRZAOBOD TUMANI KENGASHI
Q A R O R I

2023 - yil 11 - yanvar VI-61-1-9-125-K/23 Mirzaobod tuman hokimligi

Xalq deputatlari Mirzaobod tumani Kengashining 2022-yil 30-dekabrdagi “2023-yilgi tuman mahalliy byudjetini tasdiqlash hamda mahalliy byudjetlari daromadlari va xarajatlarining prognoz koʻrsatkichlarini belgilash toʻgʻrisida”gi VI-61-270-9-125-K/22-sonli qarorining 6-ilovasiga qoʻshimcha va oʻzgartirish kiritish toʻgʻrisida.

Oʻzbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi “2023-yil uchun Oʻzbekiston Respublikasining Davlat byudjeti toʻgʻrisida”gi OʻRQ-813-sonli Qonuni hamda Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashining 2022-yil 30-dekabrdagi “2023-yilgi viloyat mahalliy byudjetini tasdiqlash hamda tuman, shahar mahalliy byudjetlari daromadlari va xarajatlarining prognoz koʻrsatkichlarini belgilash toʻgʻrisida”gi VI-43-173-9-0-K/22-sonli qarorining ijrosini ta’minlash maqsadida Mirzaobod tumani Davlat soliq inspeksiyasining 2022-yil 20-dekabrdagi 19/5-06624-sonli xatini inobatga olib, Oʻzbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 99-moddasi, Oʻzbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Qonunining 6,24-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari Mirzaobod tumani Kengashi **qaror qiladi:**

1. Xalq deputatlari Mirzaobod tumani Kengashining 2022-yil 30-dekabrdagi “2023-yilgi tuman mahalliy byudjetini tasdiqlash hamda mahalliy byudjetlari daromadlari va xarajatlarining prognoz koʻrsatkichlarini belgilash toʻgʻrisida”gi VI-61-270-9-125-K/22-sonli qarori hamda Mirzaobod tumani Davlat soliq inspeksiyasining 2022-yil 20-dekabrdagi 19/5-06624-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Mirzaobod tumani Kengashining 2022-yil 30-dekabrdagi

“2023-yilgi tuman mahalliy byudjetini tasdiqlash hamda mahalliy byudjetlari daromadlari va xarajatlarining prognoz ko‘rsakichlarini belgilash to‘g‘risida”gi VI-61-270-9-125-K/22-sonli qarorining 6-ilovasi o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

3. Xalq deputatlari Mirzaobod tumani Kengashining 2022-yil 30-dekabrdagi “2023-yilgi tuman mahalliy byudjetini tasdiqlash hamda mahalliy byudjetlari daromadlari va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlarini belgilash to‘g‘risida”gi VI-61-270-9-125-K/22-sonli qarorining 6-ilovasi quyidagi tahrirda o‘zgartirilsin.

4. Ushbu qaror ijrosini ta’minlash tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari I.Xolqo‘ziyev zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **J.Yariyev**

Xalq deputatlari Mirzaobod tuman
Kengashining
2023 yil 11 yanvardagi
VI-61-1-9-125-K/23-son qaroriga
1-ilova

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha 1 gektar uchun mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

ming sumda

T/r	MFY lar nomi	Koeffitsient (0,7 dan 3,0 gacha)	yer solig‘i stavkasi 2023 yil uchun (1 ga uchun)
1	Navro‘z MFY	1,00	28 800,0
2	Bog‘iston MFY	1,00	28 800,0
3	Toshkent MFY	1,00	28 800,0
4	Mirzo Ulug‘bek MFY	1,00	28 800,0
5	Yangi Xayot MFY	0,90	25 920,0
6	Yo‘ldoshobod MFY	0,90	25 920,0
7	Baxoriston MFY	0,90	25 920,0
8	Navbaxor MFY	0,90	25 920,0
9	Xaqiqat MFY	0,90	25 920,0
10	Do‘ngariq MFY	0,90	25 920,0
11	Mirzacho‘l MFY	0,90	25 920,0
12	Yangi yo‘l MFY	0,90	25 920,0
13	Dexqonobod MFY	1,00	28 800,0
14	Oqoltin MFY	1,00	28 800,0
15	Oydin MFY	0,90	25 920,0
16	Nurafshon MFY	0,90	25 920,0
17	Tinchlik MFY	0,90	25 920,0
18	Yangi O‘zbekiston MFY	1,00	28 800,0